**25** НЕЗАВИСИМОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Филиал Московского государственного университета имени М.В.Ломоносова в городе Ташкенте

НАМ 10 ЛЕТ

Кафедра общегуманитарных и социально-экономических наук

НАМ 5 ЛЕТ


Московский государственный университет
имени М.В.Ломоносова
Филиал Московского государственного университета
имени М.В.Ломоносова в городе Ташкенте
Кафедра «Общегуманитарные и социально-экономические дисциплины»


# «ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ЛИЧНОСТИ XXI ВЕКА В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ»

**Материалы четвертой традиционной**

**научно-практической конференции**

**15–16 апреля 2016 года**


ТОМ VII

Ташкент – 2016

## СОДЕРЖАНИЕ

### ПЛЕНАРНОЕ ЗАСЕДАНИЕ


**Маманазаров А.Б.** Изучение вопросов финансовой грамотности как составной части экономической культуры в процессе профессионального становления студенческой молодежи..........8
**Гулямов С.С., Акбаров Ф.Ж., Ганиходжаев С.О.** Интеграция внешних и внутренних факторов влияющих на качество непрерывного образования..........16
**Боймурадов Ш.А., Билалов Э.Н., Шорустамов М.Т.** Актуальные исследования формирования медицинского образования в международном образовательном пространстве..........20
**Саидов М.Х., Мадалиев А.А.** Основные аспекты активизации человеческого фактора..........30


### 5 СЕКЦИЯ


**Kinjemuratova Z.M.** Empowering students' active learning via interactive games..........38
**Климов В.И.** Нейрохронаксическая теория Р.Юссона величина импеданса – показатель профессионализма оперного певца..........42
**Кобилджанова Т.А.** Культурология и формирование гармоничной личности..........45
**Qobiljonova M.Q., Xodjaeva N.SH.** Amaliy dasturlardan tasvir chizishda foydalanish..........48
**Qodirov B., Sodiqova M.I.** Sog'lom ona va sog'lom bola - kelajakka poydevor..........51
**Qodirova M.Q., Jo'raqulova S.T.** Kichik maktab yoshi o'quvchilarining ta'limni o'zlashtirishida irodaviy xususiyatlarning o'rni..........54
**Қодирова Ҳ.Н.** Муаммоли таълимнинг ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишдаги ўрни..........57
**Кодирова Ш.А.** Одаренность, как фактор повышающий продуктивность образовательного процесса..........59
**Қосимов Ш.У.** Касб-ҳунар таълимида ишлаб чиқариш амалиётининг мазмунини лойиҳалаш..........61
**Qudratova M.X.** Students'responsibility towards environment as a modern educational problem..........64
**Кузикулова Д.М., Арипжанова Л.Х.** Актуальность проблемного обучения на уроках французского языка..........67
**Курбанбаева А.У., Закирова Г.Т.** Развитие женского предпринимательства в республике Узбекистан..........69
**Qurbonboev A.** Psixologiya fanida tavakkalchilikni o'rganish borasidagi yo'nalishlar..........74





**Qurbonova G.A.** Yoshlarning oiladagi ta'lim-tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni..........76
**Курязов Р., Исеев Ш.Т.** Проблемы и перспективы профессиональной подготовки специалистов для современных футбольных клубов..........79
**Кучкарова А.** Шахс психологиянинг ўрганиш соҳаси сифатида..........82
**Кучкарова Ф.** Совместная деятельность семьи и учебного заведения..........84
**Latipov A.A.** "Erkaklar" xususiyatlarini aks ettiruvchi frazeologik birliklar..........86
**Латипхонова М.О., Ишанбекова Н.Р.** Маданият ва санъат соҳасида раҳбарлик ва раҳбар кадрлар масаласи..........89
**Levinskaya V.O.** The importance of development of independent learning model at Westminster international university in Tashkent learning resource Centre..........92
**Ли Е.В.** Формирование творческой личности в современной системе образования..........100
**Li S.P.** Developing reading skills in young children..........103
**Lutfullayeva F.B., Jumaniyozova D.X.** O`quvchi-yoshlar huquqiy madaniyati darajasini oshirishda yuridik fanlar bo`yicha tashkil etilgan to`garaklarning o`rni va ahamiyati..........109
**Лутфуллаева Ф.Б., Абдуалимова Д.Х.** Повышение уровня правовой культуры учащихся в период обучения в академическом лицее..........112
**Лушачев В.В., Абибуллаев Д.Н.** Актуальные проблемы научно-методического обеспечения в современном футболе..........114
**Лушачев В.В., Абибуллаев Д.Н. Основы профессионально-педагогического мастерства тренера..........117**
**Лушачев В.В., Бобомуродов Б.К.** Проблемы здоровья подрастающего поколения и средства его улучшения..........119
**Лушачев В.В., Бобомуродов Б.К. Физическое воспитание и всестороннее развитие личности..........123**
**Мадаминова Я., Бекизова Н.** Болалар таълим олишларида онанинг ўрни..........126
**Мадаминова Я., Болтаева Ш.** Меҳнат таълимида тасвирий тушунчаларнинг аҳамияти..........130
**Madrimov B.X.** Yosh avlod kamolotida estetik tarbiyaning ahamiyati..........133
**Majidov A.N.** Boshlang'ich sinflarda xalq maqollarini o'qitishda yangi texnologiyalar foydalanish..........135
**Мажидов Ж.Ж.** Талабаларда учрайдиган стресс ҳолатлари ва уларни бартараф этиш йўллари..........139
**Мажидова У.Б.** Шарқ ва Бетховен..........143
**Мамадалиев А.Б.** Малака ишининг педагогик таълим тарбиядаги долзарблиги..........146
**Мамадалиева М.З.** Изучение философии как фактор формирования активной жизненной позиции студента..........149
**Мамадиёрова Ф.С.** Труд молодежи Узбекистана в

# KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARINING TA'LIMNI O'ZLASHTIRISHIDA IRODAVIY XUSUSIYATLARNING O'RNI

**Qodirova Malika Qaxramonovna, katta o'qituvchi,**
**Jo'raqulova Sobira To'raqul qizi, talaba,**
**Jizzax davlat pedagogika instituti**

Ma'lumki, o'quvchilar ta'limi jarayonida qiyinchiliklar vujudga keladi, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday jarayon ayniqsa boshlang'ich sinflarda anchagina murakkab kechadi. Bunda o'qituvchining muhim vazifasi – o'quvchilar faoliyatini, ichki anglanlangan motivlarini, xulq-atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shahsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va idiallarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Umumta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarning irodaviy zo'r berishlari ularning topshiriqlarni yechishga intilishlarida, o'ziga buyruq berishida, o'zini qo'lga olishida o'z ifodasini topadi.

Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi. Maktabga borish oldidan bola, qoidaga ko'ra, o'z hayotining eng muhim davriga, ya'ni maktab tomonidan qo'yiladigan turli-tuman talablarni bajarishga, boshqacha qilib aytganda, ta'lim olishga ham jismoniy, ham psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Bunda bola ta'lim-tarbiya jarayonidagi turli talablarga amal qilish yuzasidan ma'lum bir qarorga kelishi, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish bilan ro'yobga chiqadi. Bola maktabga kirishi bilan uning butun hayot tartibi, ijtimoiy holati, jamoadagi, oiladagi ahvoli keskin o'zgarib ketadi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish, bilim orttirish vazifasidan iborat bo'lib qoladi. O'qish – boladan ma'lum uyushqoqlikni, intizomlilikni, anchagina irodaviy zo'r berishlikni talab qiladigan jiddiy mehnatdir. Turli ehtiyojlar tufayli vujudga keladigan, maqsadga yo'nalganlik hususiyatini kasb etadigan bolaning faolligi o'zining tuzilishi, shakli, rang-barang bo'lgan harakatlar bilan ta'lim muassasasi talabalriga mos (maqsadga muvofiq) kelmaganligi sababli qayta quradi, takomillashtiradi, ta'lim olishga bo'ysundiriladi.



Ehtiyoj, motiv, qiziqish, anglashilmagan, anglashilgan mayllar negizidan kelib chiqadigan barcha ko'rinishdagi harakatlar o'zlarining yuzaga kelishiga binoan ixtiyorsiz harakatlar anglangan yoki yetarli darajada anglanmagan istak, xohish, tilak, mayl va shu kabilarning ichki turtki ta'sirida paydo bo'lishi natijasida ro'yobga chiqariladi. Mazkur istak va uning boshqa shakllari impulsiv xususiyatga ega bo'lib, inson tomonidan anglanmaganligi uchun ma'lum obektga qaratish yuzasidan rejalashtirilmagan, hatto ko'zda tutilmagan bo'ladi. Shuning uchun, kichik maktab yoshidagi o'quvchi xarakteri o'zining ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi. Dastavval ular harakterining impulsivligi (beixtiyorligini), ularning o'ylamasdan va barcha holatlarni hisobga olmay, bevosita impulslar, mayllar va tasodifiy sabablar ta'siri ostida darxol harakat qilishga moyilliklarni ko'rsatib o'tamiz. Bu hodisaning sababi bolaning yoshi bilan bog'liq hatti-harakatlarni iroda orqali boshqarishning sustligi va aktiv tashqi vaziyatga bo'lgan ehtiyojdir. Ammo, bolaning irodasi faqat tashqi hatti-harakatlarda namoyon bo'lib qolmasdan, balki ortiqcha, noto'g'ri harakatlarni qilmasligida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Irodaviy sifatlarning shakllanmaganligi kichik maktab yoshining o'ziga xos hususiyati hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi (hususan 7—10 yoshli bolalar) o'z oldiga qo'ygan maqsadini uzoq muddat davomida ko'zlab borishini, keyinchalik va to'siqlarni qatiyatlik bilan yengishni hali bilmaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi muvaffaqqiyatsizlikka uchragan paytda o'z kuchiga va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni yo'qotib qo'yishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar harakaterida ko'p uchraydigan kamchiliklar, ya'ni ularning injiqligi va qaysarligi oila tarbiyasidagi nuqsonlar oqibatidir. Bunday bola o'zining barcha talab va hohishlari qondirilishiga odatlanib qolgan bo'ladi. Boladagi injiqlik va qaysarlik uni ta'lim muasassasi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan qat'iy talablarga, «O'zi xohlagan ishi»ni emas, balki «kerakli ish»ni bajarish zarurligiga qarshi qaratilgan o'ziga hos norozilik shakllaridir. Bolalarning ta'lim davridagi barcha xarakterlari to'la anglanmagan yoki etarli anglangan darajada ekanligidan qat'i nazar ular obyektiv jihatdan psixikasining boshqa shakllari bilan izchil bog'lanishdan iboratdir. Ya'ni, bolaning irodaviy harakateri har tomonlama ditermenizmga, binobarin sababiy bog'lanish qonuniga bevosita bo'ysunadi. Bolaning irodasi ijtimoiy hayotiy va ta'lim-tarbiya sharoitida turli axborotlar natijasi sifatida yuzaga kelgan motivlarning hususiyati va

maqsad bilan uyg'unlashgandir. Iroda bolaning o'z hatti harakatlarini (xulq-atvorini) o'zi boshqarishni, u yoki bu hususiyatli intilish va istaklarni tormozlashni talab qiladi. Binobarin, u anglangan turlicha harakterlar tizimi mujassam bo'lishni nazarda tutadi. Irodaviy faoliyat, mohiyat shunda ko'zga tashlanadiki, bunda bola o'zini boshqaradi, o'zini qo'lga oladi, o'zining hususiy ihtiyorsiz ipmulsiv tomonlarini nazorat etadi, hatto zarurat tug'ilsa u holda ularni tomoman yo'qotadi ham. Iroda paydo bo'lishining bosh omili inson tomonidan faoliyatining turli tarkiblarining irodaviy harakterlarini tizimli tarzda tadbiq etilishi, bunday ish – harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi shaxsning faolligidir.

Ma'lumki, o'zlashtirishning samaradorligi o'quvchilarning irodaviy zo'r berishi, anglashilgan o'quv motiviga bevosita bog'liq. Modomiki, shunday ekan, ularni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish, ayrim paytda duch keladigan muvaffaqqiyatsizliklar oldida dovdirab qolmasdan, balki ularni o'zini-o'zi idora qilishga o'rgatish ayni muddaodir. Buning uchun ularda qiyinchiliklarni yenga olish o'quvini, o'zini-o'zi qo'lga olish fazilatini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun ta'lim-tarbiyani tashkil etishda ularning irodaviy sifatlarini o'stirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Buning uchun quyidagi ish – amallarini rejalashtirish maqsadga muvofiq:

- aniq va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlarni ko'zlashga o'rgatish;
- burch va ma'suliyat hissini shakllantirish;
- maqsadga intilish va istakni ro'yobga chiqarish mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'z kuchiga ishonch tuyg'usini tarkib toptirish uchun maxsus psixotreninglar (ichki va tashqi to'siqlarni yengishni mashq qilish, turli vaziyatlarda ya'ni irodaviylik talab qiladigan mashqlar) ni qo'llash;
- o'z faoliyati maxsuliga va xulq-atvoriga baho berish bilan shug'ulantirish;
- kun tartibi bo'yicha barcha xarakatlarni amalga oshirish.

**Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni. 1997.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. 1999.
3. G'oziev E. Umumiy psixologiya. 2002.



4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). — Toshkent: «Moliya» nashriyoti. 2003.
5. Tolipov O'. Ta'lim: o'qituvchi va o'quvchi faoliyati. Sog'lom avlod uchun j. 2000.

## МУАММОЛИ ТАЪЛИМНИНГ ЎҚУВЧИЛАРНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШДАГИ ЎРНИ

**Қодирова Ҳалима Нурмуҳамад қизи,**
**Низомий номдаги ТДПУ магистранти,**
**Навоий номидаги давлат стипендияси соҳибаси**

Президентимиз И.А. Каримов Ўзбекистоннинг келажаги, иқтисодий ривожланиши ҳусусида фикрларини баён этар экан, унда бугунги кун ёшларига алоҳида тўхталиб: "Ҳозирги шиддатли замоннинг реал ҳақиқати шундан иборатки, интеллектуал ва маънавий бойликка эга бўлган халқ ва миллат, ҳеч шубҳасиз, ҳақли равишда бугунги ва эртанги кунга эгалик қила олади. Биз ёш авлодимизни миллий қадриятларга садоқат руҳида тарбиялаш билан бирга, уларнинг умумбашарий тараққиёт ютуқлари, замонавий билимларни ҳар томонлама чуқур ва пухта эгаллаши учун барча шарт-шароитни яратиб беришимиз лозим. Чунки ҳозирги пайтда давр бизнинг олдимизга қўяётган юксак талабларга жавоб беришга қодир бўлиб яшаш, турли-туман мураккаб муаммоларни ўз вақтида ва оқилона ечиш учун, албатта, замонавий билим ва тафаккур сув ва ҳаводек зарур.

Ёшларимизни ўз мустақил фикрига эга бўлган, барча соҳаларда дунёдаги тенгдошлари билан беллаша оладиган, биз бошлаган ишларнинг муносиб давомчилари, мард ва жасур, комил инсонлар қилиб тарбиялаш – бу нафақат катта бахт, айни пайтда бу аввало ўзбек халқининг қадимий шуҳратини қайта тиклаш, унинг халқаро майдондаги обрў-эътиборини янада юксалтириш, ривожланган давлатлар сафидан муносиб ўрин эгаллашининг асосий шарти ва гаровидир", [1, 200] деб таъкидлайдилар.

Бугунги шароитда таълим-тарбиянинг вазифаси – ўқувчини зарур билимлар йиғиндиси билан таъминлаш доирасидан чиқиб кетиш ва ўқувчининг маънавиятини шакллантириш ҳамда бойитиш, унинг